AXBOROT XAVFSIZLIGI TA'MINLANISHINING ZAMONAVIY USUL VA VOSITALARI

Jomonqulova Fazilat Esirgapovna

O'zbekiston, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

E-mail: fazilat_72@mail.ru **Telefon raqami:** +99899 449 95 61

Ortiqov Farmonboy Raxmon o'g'li

O'zbekiston, Samarqand iqtisodiyot va servis institituti, "Iqtisodiyot fakulteti" talabasi

E-mail: farmonboyortiqov1@gmail.com **Telefon raqami:** +99899 771 45 05

Mexriddinov Fahriddin Asqar o'g'li

O'zbekiston, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, "Iqtisodiyot fakulteti" talabasi

E-mail: fahriddinmexriddinov@gmail.com **Telefon raqami:** +99899 136 35 73

Rahmatova Yasmina Dilshodjon qizi

O'zbekiston, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, "Iqtisodiyot fakulteti" talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot tushunchasi, axborot xavfzilgi, axborot xavfsizligining muhimlik darajasi, axborotni himoya qilishning yo'nalishlari va turlari kabi tushunchalar bayon etilgan. Axborot sohasidagi milliy xavfsizlikni ta'minlashning zamonaviy asoslari talqin etilgan.

Kalit so'zlar: axborot, axborot xavfzilgi, axborotni himoya qilishning yo'nalishlari, axborotni himoya qilish turlari, axborotlarni ma'naviy-ma'rifiyhimoyalash usuli.

Abstract: This article describes concepts such as information security, information security, the importance of information security, areas and types of -of information are interpreted.

Keywords: information, information security, directions of information protection, types of information protection, methods of spiritual and educational protection of information.

KIRISH

Bugun hayotimizning barcha jabhalariga axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelganligi ayni haqiqat. Bu o'zgarishlarning asosini axborotlashtirish, telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari tashkil etadi. XXI asr - axborotlashgan jamiyat asridir.

"Axborot ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotning muhim omilidir. Shu sababli ham u inson tafakkuriga turli yo'nalishlarda ta'sir etuvchi, insoniyatning hayoti va taqdirini u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, goh ijobiy, goh salbiy mohiyat kasb etuvchi qudratli vositaga aylandi" Axborotning muximlik darajasi qadim zamonlardan ma'lum. Shuning uchun ham qadimda axborotni himoyalash uchun turli xil usullar qo'llanilgan. Ulardan biri – sirli yozuvdir. Undagi xabarni xabar yuborilgan manzil egasidan boshqa shaxs o'qiy olmagan.

Asrlar davomida bu san'at – sirli yozuv jamiyatning yuqori tabaqalari, davlatning elchixona rezidentsiyalari va razvedka missiyalaridan tashqariga chiqmagan. Faqat bir necha o'n yil oldin hamma narsa tubdan o'zgardi, ya'ni axborot o'z qiymatiga ega bo'ldi va keng tarqaladigan mahsulotga aylandi. Uni endilikda ishlab chiqaradilar, saqlaydilar, uzatishadi, sotadilar va sotib oladilar. Bulardan tashqari uni o'g'irlaydilar, buzib talqin etadilar va soxtalashtiradilar. Shunday qilib, axborotni himoyalash zaruriyati tug'iladi. Axborotni qayta ishlash sanoatining paydo bo'lishi axborotni himoyalash sanoatining paydo bo'lishiga olib keladi. Avtomatlashtiriltgan axborot tizimlarida axborotlar o'zining hayotiy davriga ega bo'ladi. Bu davr uni yaratish, undan foydalanish va kerak bo'lmaganda yo'qotishdan iboratdir.

Quyidagi omillar ushbu mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi:

- hozirda mafkuraviy tahdid jamiyat taraqqiyoti uchun jiddiy xavf ekanligi;
- globallashuv jarayonlari va ma'naviy-axboriy tahdidlarning bugungi kuning katta muammolardan biri ekanligi;
- axborot sohasidagi xavfsizlik milliy xavfszilik sohasidagi eng muhim yo'nalishgaaylanib borayotganligi;
- axborotni himoya qilishning ahamiyatliligi;
- ma'naviy tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid ekanligi;
- ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish omillarini tahlil qilish;
- jamiyatimizdagi turli ma'naviy-axboriy tahdidlarga qarshi kurashishda axborot olish madaniyatini shakllantirilishi va boshqalar.

ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning va O'zbekiston Respublikasi hozirgi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning chiqishlarida va asarlarida ma'naviy tahdidlar, unga qarshi kurashish zaruriyati, bu boradagi vazifalar va axborot xavfsizligida milliy xavfsizlik masalalari, yoshlar orasida axborot madaniyatini shakillantirish, axborot olish erkinligini ta'minlash, axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari keng tahlil qilingan. Ushbu Axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlashning sub'ektiv omillari va o'ziga xos jihatlari mavzusi S.Otamurtovning "Globallashuv va milliy-ma'naviy havfsizlik", Sh.Umarov va F.Mulaydinovlarning "Axborot xavfsizligi", M.Quronovning "Milliy tarbiya", M.Lafasovning "Diniy ekstremizm: tarixi va mohiyati", X.Jumaniyozov, M.Sobirovlarning "Globallashuv asoslari", M.Karimov va N.Turgunovlarning "Axborot xavfsizligi asoslari" asarlarida yoritib berilgan.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan darda biz insonlarnin hech birimiz kundalik turmush tarzimizni axborot va axborot ulashuvchi vositalarisiz tasavvur qila olmaiymiz. Ushbu axborot olish jarayonida biz internet, ijtimoiy tarmoqlar, tilvidinya, gazeta-jurnallar, kitoblardan keng foydalanamiz. Ko'pincha biz ushbu olayotgan axborotlarimizning haqqiqiymi, aniqmi, haqiqatga mosmi, mualifi kim, qaysi tashkilot yoki nashrning axboroti ekanligiga va qanday turdagi axborot ekanligiga qiziqmaymiz. Bu esa bizning axborot olish madaniyatiga ega emasligimizni va kata xatolarga yo'l qo'yishimizga olib kelishini hech birimiz o'ylab ko'rmaymiz. Vaholanki axborotni qanday yo'qotish mumkinligini va bu qanday oqibatlarga olib kelishini barcha ham tushunavermaydi. "Aytishingiz mumkin qanday yo'qotish yoki oqibat!" deb.

Hozir sizga axborot sohasidagi jahonda ro’y bergan ba’zi voqealarni misol keltiraman. Misol uchun Xakerlar hujumi oqibatida 150 mamlakatda 200 ming kishi va ko‘plab tashkilotlar zarar ko‘rdi. Bu haqda Yevropa politsiya agentligi (Yevropol) rahbari Rob Ueynrayt ma’lumot berdi, deb xabar qiladi “RBK”. Shu bilan birga, uning aytishicha, juda oz sonli odamlar xakerlarga pul o‘tkazib bergan. “Barcha sektorlardagi tashkilotlar jiddiy tarzda xavfsizlik choralari ko‘rishi lozim”,- ta’kidladi Ueynrayt. “Ayni paytda biz xavf-xatar o‘sayotgan bir vaziyatda turibmiz. Zarar ko‘rganlar soni ko‘paymoqda. Odamlar 15-may (dushanba) kuni ishga kelib kompyuterlarini yoqqanida ularning soni yanada o‘sishidan xavotirdaman”, — qo‘shimcha qildi Yevropol rahbari. Xakerlar Yahoo.com, Amazon.com kabi kompaniyalarga va hatto kosmik tadqiqot agentiligi NASAga katta zarar yetkazdilar. Xavfsizlik xizmati bozorining eng yirik nomoyondalaridan biri RSA Security, har qanday taxdidga qarshi chora borligi xususidagi o’ylamasdan qilgan bayonotidan bir necha kundan keyin, xujumga duchor bo’ldi.

Yana shuni aytishimiz mumkinki “Fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta’minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o‘z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, bu O‘zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta’bir joiz bo‘lsa, tamal toshi hisoblanadi”– degan edi birinchi pirizidentimiz I.Karimov.

Axborot – manbalari va taqdim etilish shaklidan qat’iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar yig’indisidir. XXI asrda shaxs, jamiyat va davlat taraqqiyotida axborot resurslari va texnologiyalarining ro’lini ortishi natijasida O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini axborotlashtirilgan jamiyat sifatida qurish masalasini hal etish bilan birga quyidagi omillar milliy xavfsizliknita’minlash tizimida axborot xavfsizligining yetakchi o‘rin egallashini belgilaydi:

– milliy manfaatlar, ularga tajovuz va ularni bu tajovuzlardan himoyalash axborot va axborot sohasi orqali ifodalanadi, amalga oshiriladi;

– inson va uning huquqlari, axborot va axborot tizimlari hamda ularga egalik qilishbu nafaqat axborot xavfsizligining asosiy obyektlari, balki xavfsizlik sohasidagi barcha xavfsizlik obyektlarining asosiy elementlari hamdir;

– axborot yondashuvidan asosiy ilmiy-amaliy usul sifatida foydalanish orqali milliy xavfsizlik masalalarini hal etish mumkin;

– milliy xavfsizlik muammosi yaqqol ajralib turuvchi axborot tavsifiga ega.

Axborot xavfsizligini ta’minlashga yo‘naltirilgan himoya harakatlari qator kattaliklar bilan tavsiflanishi mumkin: tahdid xarakteri, harakat usullari, uning tarqalganligi, o‘rab olish mashtabi kabilar. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi №439-II-sonli “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunida axborot xavfsizligi *axborot borasidagi xavfsizlik* deb belgilangan va u axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holatini anglatadi.

Axborot sohasida *shaxs manfaatlari* fuqarolarning axborotdan foydalanishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshishida, qonunda taqiqlanmagan faoliyat bilan shug‘ullanishida hamda jismoniy, ma’naviy va intellektual rivojlanishda axborotlardan foydalanishlarida, shaxsiy xavfsizlikni ta’minlovchi axborot himoyasida namoyon bo‘ladi.

Axborot sohasida *jamiyat manfaatlari* bu sohada shaxs manfaatlarini ta’minlashda, demokratiyani mustahkamlashda, ijtimoiy huquqiy davlatni qurishda, ijtimoiy hamjihatlikni qo‘llab-

quvvatlashda o‘z aksini topadi.

Axborot sohasida *davlat manfaatlari* milliy axborot infrastrukturasining rivojlanishiga sharoitlar yaratishda, axborot olish sohasida shaxs va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshishida, O‘zbekistonning hududiy birligini, suverenitetini va konstitutsiyaviy tuzumining mustahkamligini, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlash maqsadida axborotdan foydalanishda, qonuniylik va huquq tartibotni qat’iy amalga oshishida, o‘zaro tenglik va o‘zaro manfaatdorlikdagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda ifodalanadi[7].

Axborotni ximoya qilish deganda:

-Axborotning jismoniy butunligini ta’minlash, shu bilan birga axborot elementlarining buzilishi, yoki yo’q qilinishiga yo’l qo’ymaslik;

-Axborotning butunligini saqlab qolgan xolda, uni elementlariniqalbakilashtirishga (o’zgartirishga) yo’l qo’ymaslik;

-Axborotni tegishli huquqularga ega bo’lmagan shaxslar yoki jarayonlar orqalitarmoqdan ruxsat etilmagan xolda olishga yo’l qo’ymaslik;

-Egasi tomonidan berilayotgan (sotilayotgan) axborot va resurslar faqat tomonlaro’rtasida kelishilgan shartnomalar asosida qo’llanilishiga ishonish kabilar tushuniladi.

Axborotni muhofaza qilish quyidagilarga yo‘naltirilgan:

-axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha tahdidlarning oldini olish;

-tizimli tahlil va nazorat orqali real va ehtimoli katta bo‘lgan tahdidlarni aniqlashva ularni o‘z vaqtida oldini olish choralari;

-aniq tahdidlar va jinoiy harakatlarni aniqlash maqsadida tahdidlarni topish;

-jinoiy harakatlarni bartaraf etish, shuningdek aniq jinoiy harakatlarni hamdatahdidlarni yo‘q qilish bo‘yicha choralar ko‘rish;

-tahdid va jinoiy harakatlarning oqibatlarini yo‘q qilish va mavqeini saqlash.

Axborot xavfsizligi tizimi davlatning axborot sohasidagi siyosatini mamlakatda milliy xavfsizlikni ta’minlash davlat siyosati bilan chambarchas bog‘laydi. Bunda axborot xavfsizligi tizimi davlat siyosatining asosiy tashkil etuvchilarini yaxlit bir butunlikka biriktiradi. Bu esa axborot xavfsizligining roli va uning mamlakat milliy xavfsizligi tizimidagi mavqeini belgilaydi. Axborot sohasidagi O‘zbekistonning milliy manfaatlarini, ularga erishishning strategik yo‘nalishlarini va ularni amalga oshirish tizimlarini o‘zida aks ettiruvchi maqsadlar yaxlitligi davlat axborot siyosatini anglatadi. Shu bilan birga davlat axborot siyosati mamlakatning tashqi va ichki siyosatining asosiy tashkil etuvchisi hisoblanadi, hamda jamiyatning barcha jabhalarini qamrab oladi. Axborot himoyasi turlari ikki asosiy belgiga ko‘ra tasniflanadi:

- birinchidan, axborot xususiyligi, aniqrog‘i qo‘riqlanadigan sirlar turiga ko‘ra;
- ikkinchidan, axborot himoyasi uchun qo‘llaniluvchi kuchlar, vositalar va usullar guruhlari bo‘yicha.

Birinchi guruhga quyidagi asosiy yo‘nalishlar kiritilishi mumkin: -davlat sirlarini himoya qilish; -davlatlararo maxfiy ma’lumotlarni himoya qilish; -tadbirkorlik sirlarini himoya qilish; -xizmat sirlarini himoya qilish; -mutaxassislik sirlarini himoya qilish va xususiy ma’lumotlarni himoya qilish.

Ikkinchi guruhga quyidagi asosiy yo‘nalishlar kiradi:

-axborotlarni huquqiy himoyalash;

-axborotlarni tashkiliy himoyalash;

-axborotlarni muhandislik-texnik himoyalash;

-axborotni ma'naviy-marifiy himoyalash.

Axborotni muhofaza qilish tizimlaridan foydalanish amaliyoti shuniko'rsatmoqdaki, faqatgina kompleks axborotni muhofaza qilish tizimlari samarali bo'lishi mumkin. Unga quyidagi chora-tadbirlar kiradi[8]:

*1. Qonunchilik-a*xborot himoyasi sohasida yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek davlatning huquq va majburiyatlarini qat'iy belgilovchi qonuniy aktlardan foydalanish.

2. Ma'naviy-etik-obyektda qat'iy belgilangan o'zini tutish qoidalarining buzilishi ko'pchilik xodimlar tomonidan keskin salbiy baholanishi joriy etilgan muhitni hosil qilish va qo'llab quvvatlash.

3. Fizik-himoyalangan axborotga begona shaxslarning kirishini taqiqlovchi fizik to'siqlar yaratish.

4. Ma'muriy-tegishli maxfiylik rejimi, kirish va ichki rejimlarni tashkil etish.

5. Texnik-axborotni muhofaza qilish uchun elektron va boshqa uskunalardan foydalanish.

6. Kriptografik-ishlov berilayotgan va uzatilayotgan axborotlarga noqonuniy kirishni oldini oluvchi shifrlash va kodlashni tatbiq etish.

7. Dasturiy-foydalana olishlilikni chegaralash uchun dastur vositalarini qo'llash. Fizik, apparatli, dasturli va hujjatli vositalarni o'z ichiga oluvchi barcha axborot tashuvchilarga kompleks holda himoya obyekti sifatida qaraladi.

Axborotlarni ma'naviy-marifiy himoyalash usuli axborotni muhofaza qilishda juda muhim rol o'ynaydi. Aynan inson, u korxona yoki tashkilot xodimi, maxfiy ma'lumotlardan voqif bo'lib, o'z xotirasida ko'plab ma'lumotlarni jamlaydi va ba'zi hollarda axborot chiqib ketishi manbaiga aylanishi mumkin hamda uning aybi bilan o'zgalar ushbu axborotga noqonuniy ega bo'ladilar.
Axborotlarni himoyalash usuli quyidagilarni nazarda tutadi:

– xodimni tarbiyalash, u bilan ma'lum sifatlarni, qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus ishlarni olib borish (vatanparvarlik, axborotni muhofaza qilish uning shaxsan o'zi uchun ham qanday ahamiyat kasb etishini tushuntirish);

–xodimni axborotni muhofaza qilish qoidalari va usullariga o'rgatish, konfedensial axborot tashuvchilar bilan amaliy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Maqolada hozirgi kunda axborot xavfsizligi dolzarb masalalardan biri hisoblanib, axborot va uning turlari, axborot xavfsizligi, milliy xavfsizlikning yo'nalishlari, davlatimizning axborot sohasidagi xavfsizlik masalalari to'laqonli yoritib berildi. Va yana shuni aytib o'tish mumkinki bu yerda axborotning ahamiyati, uning jamiyatda va

kundalik hayotimizda tutgan o'rni, axborot xafsizligi, axborot xafsizligiga tahdid va uning turlari, bugungi kunda axborot xavfsizligining dolzarb ahamiyat kasb etishi masalalar yoritilgan.

XULOSA

Hozirgi davrga kelib hayotimizni axborot texnalogiylarsiz, kompyutersiz tasavvur qilish mumkin emas. Xozirda "axborot tushunchasi" sotib olish, sotish, biror boshqa tovarga almashtirish mumkin bo'lgan maxsus tovar belgisi sifatida tez-tez ishlatilmoqda. Shu bilan birga axborotning bahosi ko'p hollarda uning o'zi joylashgan kompyuter tizimining bahosida bir necha yuz va ming

barobarga oshib ketmoqda. Shuning uchun tamomila tabiiy holda axborotni unga ruxsat etilmagan holda kirishdan, qasddan o'zgartirishdan, uni o'g'irlashdan, yo'qotishdan va boshqa jinoiy xarakterlardan himoya qilishga kuchli zarurat tug'iladi.

Kompyuter tizimlari va tarmoqlarida axborotni ximoya ostiga olish deganda, berilayotgan, saqlanayotgan va qayta ishlanilayotgan axborotni ishonchliligini tizimli tarzda ta'minlash maqsadida turli vosita va usullarni qo'llash, choralarni ko'rish va tadbirlarni amalga oshirishni tushunish qabul qilingan. Hozirgi kunda milliy axborot resurslari xar bir davlatning iqtisodiy va harbiy salohiyatini tashkil qiluvchi omillaridan biri bo'lib xizmat kilmokda. Ushbu resursdan samarali foydalanish mamlakat xavfsizligini va demokratik axborotlashgan jamiyatni muvaffaqiyatli shakllantirishni ta'minlaydi. Bunday jamiyatda axborot almashuvi tezligi yuksaladi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash vaulardan foydalanish bo'yicha ilg'or axborot – kommunikatsiyalar texnologiyalarini qo'llash kengayadi.

Turli xildagi axborotlar xududiy joylashishidan qat'iy nazar bizning kundalik hayotimizga Internet halqaro kompyuter tarmog'i orqali kirib keldi. Axborotlashgan jamiyat shu kompyuter tarmog'i orqali tezlik bilan shakllanib bormoqda.

Axborotlar dunyosiga sayohat qilishda davlat chegaralari degan tushuncha yo'qolib bormoqda. Jahon kompyuter tarmog'i davlat boshqaruvini tubdan o'zgartirmoqda, ya'ni davlat axborotlarning tarqalishi mexanizmini boshqara olmay qolmoqda. Shuning uchun ham mavjud axborotlarga noqonuniy kirish, ulardan foydalanish va yo'qotish kabi muammolar dolzarb bo'lib qoldi. Bularning bari shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligi darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy va ajralmas qismi bo'lib, axborot himoyasi esa davlatning birlamchi masalalaridan biri bo'lib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. F.E.Jomonqulova,I.E.Shadmonov Iqtisodiyotda axborot -kommunikatsiyon texnologiyalar va tizmalar: O'quv qo'llanma Toshkent``Iqtisod-Moliya", 2022

2. Jamankulova, F.E., & Nizomov, M.Q. (2020). The Notion Of Information And Its Significance In The State Economy. CUTTING EDGE-SCIENCE, 20;

3. Jomonkulova, F.E., Nizomov, M.Q., & Uralov, S.A. (2020). To make radical changes in the system of higher education for the training of qualified personnel. In Colloquium-journal (No. 29-2, pp. 13-14);

4. Jomonkulova, F.E., Tojiyev, N.S., Nizomov, M.Q., & Uralov, S.A. (2020). of informatization and its role in the economy of the country. In Colloquium-journal (No. 29-1, pp. 60-61);

5. Jomonkulova, FE, Tojiyev, NS, Nizomov, MQ, & Uralov, SA (2020). THE CONCEPT OF INFORMATIZATION AND ITS ROLE IN THE ECONOMY OF THE COUNTRY. In Colloquium-journal (No. 29-1, p. 60-61).

6. Jomonkulova, E. F., & Shadmanov, I. E. (2022). The Notion Of Information And Its Significance In The State Economy. British View, 7(4)

7. Jamankulova, F. (2022). CONNECTION OF BLOCKCHAINS WITH SOFTWARE SYSTEMS. ASEAN Journal on Science & Technology for Development, 39(4), 128-131.

8. Jamankulova, F., Toshniyozova, M., & Nizomova, D. (2022). The Most Necessary Aspects of Artificial Intelligence in Different Fields. Mathematical Statistician and Engineering Applications, 71(4), 7536-7542.

9. NODIROVNA M. S. SOCIAL POLICY: OBJECTIVES AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE STUDY //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY. – 2023. – Т. 4. – №. 7. – С. 1-9.

10. Мирзаева Ш. Н. НОВЫЕ ТРАНСФОРМАЦИИ И ИЗМЕНЕНИЕ ПРОФЕССИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА РЫНКЕ ТРУДА УЗБЕКИСТАНА //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 36. – С. 668-679.

11. Абдукаримов Ф. Б. А., Мирзаева Ш. Н. МАЛЫЙ БИЗНЕС-КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 36. – С. 657-667.

12. Абдукаримов Б. А. А., Мирзаева Ш. Н. РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 36. – С. 648-656.

13. MIRZAEVA SHIRIN NODIROVNA. (2023). THE IMPORTANCE OF INVESTING IN THE DEVELOPMENT OF THE SOCIAL SPHERE IN OUR COUNTRY. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, *4*(6), 153-160. Retrieved from https://cajitmf.centralasianstudies.org/index.php/CAJITMF/article/view/534

14. Курбанова Р., Мирзаева Ш., Хакимов Д. РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ И ТЕХНОЛОГИЙ В ИЗМЕРЕНИИ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. S/4. – С. 204-216.

15. Шарипов Т. С., Мирзаева Ш. Н. СОСТОЯНИЕ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В СФЕРЕ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 36. – С. 27-45.

16. Мирзаева Ш. Н. ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПОДДЕРЖКИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И ДЕЛОВОЙ АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 36. – С. 46-56.

17. Nodirovna M. S. Banks and Development of Banking Services in the Republic of Uzbekistan //Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 21-30.

18. Nodirovna M. S. Foreign Experience in Supporting Entrepreneurship and Business Activity of Women //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 654-665.

19. Saidakhmedovich S. T., Nodirovna M. S. The State of Implementation of Innovative Projects in the Service Sector in Uzbekistan //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 375-391.

20. Nodirovna M. S. Creation of an Additional Product in the Service Process in the Republic of Uzbekistan //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 35. – С. 635-643.

21. Nodirovna M. S. Problems of Development of the Service Sector in the Context of Digital Changes in the Republic of Uzbekistan //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 35. – С. 626-634.

22. Мирзаева Ш. Н. ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 35. – С. 662-671.

23. Nodirovna M. S. Improving the Mechanisms For Managing Service Processes in Service Enterprises in the Republic of Uzbekistan //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 35. – С. 644-652.

24. Nodirovna M. S. Trading Enterprises and Banking Services in the Republic of Uzbekistan //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 227-234.

25. Nodirovna M. S. Ways to Develop Banking Services in the Republic of Uzbekistan //World of Science: Journal on Modern Research Methodologies. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 18-24.

26. Nodirovna M. S., Ugli S. T. T., Abduazizovich A. I. WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF GOVERNMENT SERVICES IN THE EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN UZBEKISTAN //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 23. – С. 29-37.

27. Mirzayeva S. N. Prospects for the Development of Small Business and Entrepreneurship in the Digital Economy //American Journal of Economics and Business Management. – Т. 5. – С. 3.

28. Nodirovna M. S. FINANCING OF INVESTMENT ACTIVITIES IMPORTANCE OF SOURCES //Section A-Research paper Article History: Received. – 2022. – Т. 12.

29. Nodirovna M. S. Banks and Development of Banking Services in the Republic of Uzbekistan. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2 (6), 21–30. – 1910.

30. Nodirovna M. S. Foreign Experience in Supporting Entrepreneurship and Business Activity of Women. WEB OF SYNERGY: International Interdisciplinary Research JournalVolume2, Issue 5Year2023ISSN: 2835-3013https //univerpubl. com/index. php/synergy https://scholar. google. com/citations.

31. Mirzaeva S. N. et al. Innovative Enrichment of Service Enterprises Based on the Location of the Regions of Uzbekistan //AMERICAN JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT.

32. Mamanova G. B., Sultonov S. A., Mirzaeva S. N. Improvement of Economic Mechanisms for State Support of Private Entrepreneurship (Samarkand Region) //Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences.

33. Nodirovna M. S., Mamasoliyevna K. C., Ugli S. J. U. The composition of the income of service workers and ways of its improvement (on the example of educational institutions) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 4. – С. 213-218.

34. Nodirovna M. S. FOREIGN TO THE SECTORS OF ECONOMY OF UZBEKISTAN ATTRACTING INVESTMENTS. biogecko.co.nz

35. Pulatov M. E. On the Need And Ways of Converting Some of the Components of Goodwill Into Identifiable Intangible Assets //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2019. – Т. 8.

36. Pulatov M. E. Conceptual Issues Of Accounting Of Intellectual Capital //American Journal of Economics and Business Management. – 2019. – Т. 2. – №. 1. – С. 117-123.

37. Pulatov M. System Analysis Of Intellectual Property Indicators Of Financial Statements //European Journal of Business and Economics. – 2012. – Т. 6.

38. Pulatov M. INTELLECTUAL PROPERTY PARAMETERS OF FINANCIAL REPORTING. – 2016.

39. Sharipov T. S., Urokova M. G. Sustainable Directions of Employment Relations in the Service Service in Uzbekistan //JournalNX. – С. 503-506.

40. Saidahmedovich S. T. THE CONCEPT OF MANAGEMENT IN ENTERPRISE MANAGEMENT AND ITS SPECIFICITY Kilichova Orzigul Zafar kizi Student Samarkand Institute of Economics and Service.

41. Сидоров В. А., Турсунов И. Э., Шарипов Т. С. ЭКОНОМИКА ИННОВАЦИЙ: ПРОБЛЕМА ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОРЫВА //НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ. – С. 22.

42. Абдукаримов Б. А. ва бошқ. Савдо иқтисодиёти муаммолари. Ўқув қўлланма //Т.: Иқтисод-молия. – 2016. – Т. 504.

43. Абдукаримов Б. А. Ички савдо иқтисодиёти //Т.:«Фан ва технология», II. – 2014. – Т. 2008. – С. 224.

44. Шарипов Т. С., Абдукаримов Б. А. Умумий овқатланиш: ҳолати, муаммо ва ечимлар. Монография //Тошкент: Иқтисодиёт. – 2011.

45. Мирзаева Ш. Н. НОВЫЕ ТРАНСФОРМАЦИИ И ИЗМЕНЕНИЕ ПРОФЕССИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА РЫНКЕ ТРУДА УЗБЕКИСТАНА //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 36. – С. 668-679.

46. Артиков З. С. УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ПОЙДЕВОРИНИНГ ИҚТИСОДИЙ АСОСЛАРИ //Журнал Инновации в Экономике. – 2021. – Т. 4. – №. 10.

47. Sayfiddinovich A. Z. et al. Ways to Develop Trade Services in the Conditions of the Digital Economy //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 105-112.

48. Artikov Z. The ways of making work effectiveness calculations of the trade enterprises //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2019. – Т. 9. – №. 2. – С. 26-31.

49. Ogli S. M. A., Sayfiddinovich A. Z. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO ‘RSATISH KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI //Journal of marketing, business and management. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 63-66.

50. Artikov Z. S. FACTORS INFLUENCING THE INCREASE IN PROFIT AND PROFITABILITY OF BUSINESS STRUCTURES IN THE DIGITAL ECONOMY //Economics and Innovative Technologies. – 2022. – Т. 2022. – №. 2. – С. 1.

51. Махмудов Л. У. Тадбиркорлик соҳасида электрон тижоратнинг тутган ўрни //Инновацион технологиялар. – 2020. – №. 2 (38). – С. 77-82.

52. Ubaydullooglu M. L. Improving the Innovation Management System in E-Commerce //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 257-262.

53. Makhmudov L. E-commerce taxation procedure: international and national standards //Результаты научных исследований в условиях пандемии (COVID-19). – 2020. – Т. 1. – №. 03. – С. 60-75.

54. Sharifov S. S., Astanaqulov S. Improving the welfare and employment of the population. – 2022.

55. Saidahadovich S. S. The ways of Efficient use of Resources in Consumer Services //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2021. – Т. 2. – №. 8. – С. 22-29.

56. Numonovich N. A. et al. PRIORITY AREAS OF ENSURING FOOD SAFETY IN UZBEKISTAN //Journal of Advanced Zoology. – 2023. – Т. 44. – №. S-2. – С. 1485-1489.

57. Saidahmadovich S. S., Abdullayevna E. N. IMPORTANCE OF LABOR RESOURCES IN THE CONDITIONS OF DIGITAL ECONOMY AND DEVELOPMENT ACTIONS //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – T. 10. – C. 326-332.

58. Numonovich N. A. et al. CLUSTER APPROACH TO GRAPE GROWING AND PROCESSING IN UZBEKISTAN //NeuroQuantology. – 2022. – T. 20. – №. 16. – C. 3829.

59. Shahboz S. et al. Finance in the Republic of Uzbekistan Market Institutional Development Factors //INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 134-140.

60. Qizi B. D. F. Analysis of the Influence of the Investment Environmental Attractiveness on the Socio-Economic Development of Regions (On the Example Of Navoi Region) //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 131-141.

61. Shahboz S. et al. FACTORS OF IMPROVING THE ORGANIZATION OF WORK AT THE ENTERPRISE //Journal of Intellectual Property and Human Rights. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 153-159.

62. Bahriddin o'g I. S. PROMOTING EMPLOYMENT BY THE DEVELOPMENT OF FAMILY ENTREPRENEURSHIP //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 4.

63. Bahriddin o'g'li I. S. THE CONCEPT OF QUALITY OF LIFE AND FOREIGN RESEARCH EXPERIENCE QUALITY OF LIFE OF THE POPULATION //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 4.

64. Bahriddin o'g'li I. S. THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 4.

65. Bahriddin o'g'li I. S. SOME THEORETICAL VIEWS ON CONCEPTS SUCH AS FAMILY ECONOMY, ENTREPRENEURSHIP //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12. – C. 446-449.

66. Bahriddin o'g'li I. S. FAMILY BUSINESS AND ITS THEORETICAL FOUNDATIONS //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 29. – C. 5-11.

67. O’G’Li B. S. K. MARKETING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY IFODASI //Journal of marketing, business and management. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 45-52.

68. Турсунов Ж. Ш. МАТРИЦА «ТОВАР-РЫНОК» КАК ИНСТРУМЕНТ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ МАРКЕТИНГА ПРЕДПРИЯТИЙ //МОЛОДЕЖНЫЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ. – 2021. – С. 82-87.

69. Komiljon o’g’li B. S. Marketing Strategy To Increase the Efficiency of Local Industrial Enterprises //1 ВЛИЯНИЕ ПЛОДОРОДИЯ ПОЧВ НА РАЗЛИЧНЫЕ РАСТЕНИЯ, ВЫРАЩЕННЫЕ НА. – 2020. – Т. 7. – С. 9.

70. Boyjigitov S. MAMLAKATIMIZDA DON VA DON MAHSULOTLARI BOZORINING BUGUNGI HOLATI VA ISTIQBOLI //" Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to ‘plami. – 2023. – С. 57-59.

71. Boyjigitov Sanjarbek Komiljon O’G’Li BENCHMARKINGNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TURLARI // JMBM. 2023. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/benchmarkingning-o-ziga-xos-xususiyatlari-va-turlari (дата обращения: 11.09.2023).

72. Boyjigitov Sanjarbek Komiljon O'G'Li DON VA DONNI QAYTA ISHLASH SOHASIDA BOZOR MEXANIZMALARINI TO'LIQ JORIY ETISH // JMBM. 2023. №12. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/don-va-donni-qayta-ishlash-sohasida-bozor-mexanizmalarini-to-liq-joriy-etish (дата обращения: 11.09.2023).

73. O'G'Li B. S. K. MARKETING XIZMATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TASHKILIY TUZILMA TARKIBLARI ORASIDA SOG'LOM RAQOBAT MUHITINI TA'MINLASH //Journal of marketing, business and management. – 2023. – Т. 1. – №. 11. – С. 86-89.

74. Komiljon o'g'li B. S. THEORETICAL BASIS OF APPLICATION OF MARKETING ACTIVITY ANALYSIS METHODS //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2022. – Т. 1. – №. 25.10. – С. 126-132.

75. Diyor Khaqberdiyevich Xolmamatov, Bekjon Shukurillayevich Musayev, Shaxnoza Shakarbekovna Narkulova, Sanjarbek Komiljon o'g'li Boyjigitov. Internet marketing o'quv qo'llanma. 2022/6/23. 232 bet.

76. Бойжигитов С. К. АНАЛИЗ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СИСТЕМ АВТОМАТИЗАЦИИ НА ОПТОВЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ //Экономика и социум. – 2022. – №. 5-1 (96). – С. 341-345.

77. Бойжигитов С. К. Ў. ЗНАЧЕНИЕ СЕТЕВОГО МАРКЕТИНГА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ МАРКЕТИНГОВЫХ СЛУЖБ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 62-65.

78. O'G'Li B. S. K. IMPROVING THE EFFICIENCY OF MARKETING SERVICE BY EFFECTIVE USE OF DIGITAL MARKETING OPPORTUNITIES //Journal of marketing, business and management. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 30-35.

79. Diyor K. Development of Customer Service Delivery System in Wholesale Trade //Indonesian Journal of Law and Economics Review. – 2019. – Т. 2. – №. 2. – С. 10.21070/ijler. 2019. V2. 10-10.21070/ijler. 2019. V2. 10.

80. Холмаматов Д. Х. Стратегия развития оптовой торговой деятельности в узбекистане //Маркетинг в России и за рубежом. – 2021. – №. 2. – С. 98-103.

81. Kh K. D., Allayorov R. A. USE OF MARKETING LEVERS IN FORMING THE DEMAND FOR NATIONAL PRODUCTS //Journal of marketing, business and management. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 194-199.

82. Haqberdievich K. D., Shavkiddinovich M. M. Use of international marketing strategies in the development of free economic zones //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 53-61.

83. Haqberdiyevich K. D. CURRENT ISSUES IN THE DEVELOPMENT OF MARKETING LOGISTICS IN WHOLESALE TRADE //Academic Journal of Digital Economics and Stability. – 2021. – С. 13-19.

84. Haqberdievich K. D. Develop Criteria for Selecting Distribution Channels in Small Business //Academic Journal of Digital Economics and Stability. – 2022. – Т. 16.

85. Холмаматов Д. Х. Актуальные вопросы совершенствования сервисной стратегии маркетинга в оптовой торговле //ББК 72+ 74 М43. – 2020. – С. 241.

86. Kholmamatov D. Promote Upgrade After-Sales Service Strategic Skills //Indonesian Journal of Law and Economics Review. – 2019. – Т. 2. – №. 2. – С. 10.21070/ijler. 2019. V2. 8-10.21070/ijler. 2019. V2. 8.

87. Allayorov R. Resources of the Tourist Territory: Nature, Composition and Role in the Development of the Socio-Economic System //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. A1. – С. 141-147.

88. Allayorov R. Cluster approach to sustainable tourism development //Academia Open. – 2019. – Т. 1. – №. 1.

89. Allayorov R. A. A SYSTEMATIC APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF THE REGIONAL TOURISM MARKET //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 194-198.

90. Kh K. D., Allayorov R. A. USE OF MARKETING LEVERS IN FORMING THE DEMAND FOR NATIONAL PRODUCTS //Journal of marketing, business and management. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 194-199.

91. Аллаёров Р. ТУРИСТИК ҲУДУД РЕСУРС САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШНИНГ МЕТОДИК АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //" Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал. – 2022. – Т. 3. – №. 5.

92. Мухаммедова З. М., Аллаёров Р., Ахмедова А. Т. СТИМУЛИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВ //Направления повышения стратегической конкурентоспособности аграрного сектора экономики. – 2016. – С. 178-181.

93. Аллаеров Р., Хамраев М. С. МОДЕЛЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СТРАТЕГИИ ДЛЯ УПРАВЛЕНИЯ МАРКЕТИНГОМ УСЛУГ //Фінансово-кредитна система України в умовах інтеграційних та. – 2015. – С. 270.

94. Расулов З. Ж., Хамраев М. С., Аллаёров Р. ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОГО РАЗВИТИЯ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В УСЛОВИЯХ ОГРАНИЧЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕСУРСОВ //Направления повышения стратегической конкурентоспособности аграрного сектора экономики. – 2015. – С. 139-146.

95. Allayorov R. A. TOURISM DEVELOPMENT TENDENCIES IN SAMARKAND REGION UNDER THE INFLUENCE OF THE COVID-19 PANDEMEMY //Gwalior Management Academy. – С. 84.

96. Allayorov R. A. MARKETING STRATEGIES IN THE DEVELOPMENT OF REGIONAL TOURISM //Journal of marketing, business and management. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 189-193.

97. Allayorov R. The Role of Innovative Clusters In Increasing The Competitiveness of Tourist-Recreational Free Economic Zones.

98. Allayorov R. Scientific and Theoretical Fundamentals of Marketing in the Tourist Area //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2021. – Т. 1. – №. 1.1 Economical sciences.

99. Allayorov R. THE SOUTH-WEST HISOR: SIGNIFICANCE, ANTHROPOGENIC IMPACTS AND PROTECTION MEASURES //International Journal of Pedagogics. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 44-53.